

INGLIZ TILIDA SO'ZLASHUVCHILAR KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV O'QUV
USULLARIDAN FOYDALANISH

S. M. Yo'ldosheva¹

¹ PFN, Dotsent,

Usmonova Shahzoda¹

¹ O'zbekiston davlat jahon tillari

Universite 2-kurs talabasi

MAQOLA
MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.11.2024

Revised: 29.11.2024

Accepted: 30.11.2024

Ushbu maqolada ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun turli xil interaktiv o'yinlardan foydalanish va undan olinadigan foydalar haqida so'z boradi.

KALIT SO'ZLAR:

Interaktive, interfaol, emotsiya, immitating, speaking, kommunikatsiya, vlog, intonatsiya.

KIRISH. Hozirgi kunda butun dunyo bo'yicha xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab oshib bormoqda, ayniqsa ingliz tili bu borada birinchi o'rinda turadi. Chunki bugungi kunda ingliz tili butun dunyo bo'yicha tarqalgan internet tizimi va axborot texnologiyalari (IT)dagi asosiy tub til xisoblanadi, shu sababli unga ehtiyoj katta. Ko'pchilik esa uni o'rganishda bir qancha muammolarga duch keladi. Bu boradagi dolzarb muammolardan biri bu speaking (ing. "gapirish") ya'ni so'zlashuv ko'nikmasini egallashdir. Aynan speakingni oshirish uchun dars jarayonida qo'llash kerak bo'lgan bir qancha usullar mavjud.

1. Interfaol o'yinlar. O'rganish davomida turli xil interfaol o'yinlar o'ynash orqali o'quvchida ingliz tilida gapirish ko'nikmasi paydo bo'ladi, chunki ushbu o'yinlar to'liq ingliz tilida tashkillashtiriladi. O'quvchilar qanday o'yin o'ynashsa, masalan, rasmlarni tasvirlash, xaritada yo'l topish ko'rsatmasini berish yoki shu kabi (asosan gapirishga urg'u

beradigan) o‘yinlarda o‘quvchilar mana shu o‘yinlarda o‘zlari foydalangan ibora va yangi so‘zlarni uzoqroq vaqtga eslab qolishi va boshqa holatlarda ham qo‘llashi mumkin.

2. Immitating-taqlid qilish. Dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga birorta inglizcha kino yoki multfilm qahramonlariga taqlid qilish vazifasini beradi, o‘quvchilar esa unga puxta tayorgarlik ko‘rishi kerak bo‘ladi. Yoki o‘qituvchi qandaydir holat berib sahnada chiqish ko‘rsatishlari kerak. Bu orqali esa o‘quvchilar holatga tushishni, emotsiya bilan tabiiy gapirishga moslashadi.

3. Kommunikatsiya (muloqot) yoki discussion (muhokama). O‘qituvchi sinfda o‘quvchilarni guruhlariga ajratadi ularga bir xil mavzu ostida muloqot o‘tkazishni yoki o‘sha mavzuning foydali va zararli taraflari haqida muhokama o‘tkazadi. Bu orqali o‘quvchi nafaqat gapirishni, balki tez va aniq fikrlashni, fikrini isbotlab uni ximoya qilishni ham o‘rganadi.

4. Vlog yuritish. Vlog-You tube platformasi orqali vedio postlar qo‘yish. O‘quvchi yoki o‘rganuvchi ingliz tilida gapirib post uchun o‘zini vedioga oladi. Vedioni qayta ko‘rib, o‘zidagi xatolarni ko‘radi va bu orqali xatolarni to‘g‘rilydi. Bundan tashqari postni ko‘rgan odamlar undagi o‘zi bilmagan xatolarini topadi va kommentda yozishadi, bunda ham u xatolarni o‘rganadi. Bu orqali ham u tabiiy holatda gapirishga moslashadi.

Qolaversa, o‘qituvchining dars davomida to‘liq ingliz tilida gapirishi inglizcha muhit yaratadi va o‘quvchilarga ushbu muhitni xis qilish bundan tashqari unga moslashishga yordam beradi. Speaking qobiliyatini oshirishning yana bir usuli bu qaysidir mavzuni tanlab, o‘sha mavzu haqida kichik nutq tayorlashdir. Bu usul orqali o‘quvchi nutqdagi intonaysiyalarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganadi.

Bu usullar o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshiradi, ularni o‘z-o‘zidan til bilan shug‘ullanishga undaydi. Lekin har bir o‘quvchi o‘zi uchun mos bo‘lgan usulni tanlashi kerak bo‘ladi. Har bir o‘quvchi o‘z tajribasidan kelib chiqib, o‘z usulini rivojlantirishi mumkin. Bu esa o‘quv jarayonini yanada samarali va ijodiy qiladi. Ammo bu usullardan foydalanishda ba‘zi bir o‘quvchilarda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ba‘zi o‘quvchilar uchun interaktiv metodlar dastlab qiyin yoki noqulay bo‘lishi mumkin, masalan, ba‘zi o‘quvchilarda vlog yuritish asosan vedioga olish muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holatlarda o‘qituvchi vaziyatdan kelib chiqib, o‘qituvchidan o‘quvchisiga ko‘rsatmalar berishi, yoki boshqa birorta ko‘proq mos keladigan usullarni o‘rgatishi talab qilinadi. shuning uchun o‘qituvchilar ularga qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatishi muhim

Ushbu maqolada qayd etilgan usullar o'quvchilarning ingliz tilida so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatildi. Interaktiv yondashuv orqali o'quvchilar tilni faqatgina o'qish va yozishda emas, balki tabiiy suhbatlarda ishlatishga moslashadi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilar nafaqat gapirishga, balki o'z fikrini ravon ifodalashga, o'ziga ishonchni oshirishga ham o'rganadilar.

Yuqorida keltirilgan usullar orqali o'quvchilar nafaqat gapirishni balki odamlar bilan muloqot qilishni, harqanday holatga moslashishni, muammolarga yechim topishni va tezkor fikrlashni o'rganadi. Agarda barcha o'quv muassasalar yoki individual shug'illanayotgan odamlar ushbu usullardan foydalanishsa, ingliz tilini o'rganishdagi sifat va tezlik oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'. Xoshimov, I. Yoqubov, Ingliz tilini o'qitish metodikasi (2003. 140-156-betlar)
2. Jamol Jalolov, "Chet tili o'qitish metodikasi" 2012.

Foydalanilgan saytlar:

1. <https://pubs.aip.org/aip/acp/article-abstract/2805/1/040023/2907003/Using-vlog-to-enhance-students-speaking-ability?redirectedFrom=fulltext>